O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA BAXSHICHILIK SAN’ATINING HOLATI VA YUTUQLARI

Fozil Qo‘yboqarov

Qarshi davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

https://orcid.org/0009-0006-4814-4114

fozil1226@gmail.com

tel:919531216

***Kalit so‘zlar**: baxshi, baxshchilik san’ati, milliy qadriyatlar, baxshichilik maktablari, baxshichilik festivali, xalq og‘zaki ijodi*

***Ключевые слова:** бахши, искусство бахши, национальные ценности, школы бахши, фестивал бахши, народное творчество.*

***Key words:** bakhshi, bakhshi art, national values, bakhshi schools, bakhshi festival, folk art*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarida baxshichilik san’atining holati va yutuqlari manbalar asosida ochib berilgan. Shuningdek, maqolada baxshichilikning milliy qadriyatlar tizimida tutgan o‘rni, baxshichilik maktablari haqida so‘z yuritiladi.*

***Аннотация:** В данной стате на основе источников раскрываются состояние и достижения искусства дарения в годы независимости. Также в стате говорится о роли благотворителности в националной системе ценностей, школах благотворителности.*

***Abstract:** In this article, the status and achievements of the art of giving in the years of independence are revealed based on the sources. Also, the article talks about the place of charity in the national value system, charity schools.*

Baxshichilik san’ati o‘zbek xalqining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma’naviy-maishiy qiyofasi, ijtimoiy-siyosiy kurashlari, axloqiy-estetik qarashlari, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Baxshichilik murakkab san’at asari bo‘lib, uning doston bo‘lishi uchun adabiy matn, she’r, musiqa, aytim yo‘li lozim, shu tufayli doston ijrochisi – baxshi-shoir (dostonchi, jirov, yuzboshi, sannovchi, baksi) bir vaqtida badihago‘y hikoyachi, shoir, ovozga ega bo‘lgan xonanda, mohir sozanda va ma’lum darajada aktyorlik mahoratidan xabardor bo‘lgan san’atkordir. Chunki u o‘zining san’ati bilan tinglovchini rom etib, unga zavq-shavq baxshida etadi.

Baxshi – terma, qo‘shiq va dostonlarni saqlovchi, yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi san’atkor, xalq dostonchisi. Uning shirali ovozi, do‘mbirasidan taralayotgan kuy inson qalbini beixtiyor to‘lqinlantiradi, junbushga keltiradi. Baxshi xalq turmushi va madaniyatini, o‘zi yashab turgan yurt tarixini va biror cholg‘u chalishni bilishi, xonandalik san’atini puxta egallagan bo‘lishi kerak. U jonli xalq tilining turli shakllaridan, so‘z o‘yinlari va qochirimlaridan, xalq maqollari va iboralaridan unumli foydalana olishi lozim. Tinglovchilarni rom etuvchi ohang topa bilish, dostonni jozibali va qiziqarli qilib aytish doston aytishning asosiy talablaridan. Bu esa, o‘z navbatida tabiiy iste’dod, kuchli idrok, muntazam ravishda qunt va chidam bilan mashq qilishni talab etadi. Ona yurtga sadoqat, muhabbat, do‘stlik, birodarlik, qahramonlikni tarannum etuvchi xilma-xil mazmundagi dostonlarni baxshilar sevib kuylaydilar. Baxshilar tomonidan ijrochilik ijodi baxshichilik san’ati deyiladi. Masalan, Po‘lkan shoir yetmishdan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib, o‘n-o‘n besh, hatto yigirma ming misragacha she’rni, qariyb shuncha nazm qismni ham o‘z ichiga olishini hisobga olsak, xalq baxshilarining salohiyati, hayratomuz yodlash va esda saqlash qobiliyati, ijod qilish qudrati o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi. O‘zbekiston xalq baxshilari Bola baxshi Abdullaev, Shoberdi Boltaev, Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov, Qora baxshi Umirov, Abduqahhor va Abdumurot Rahimovlar, Shomurod Tog‘aev, Ziyodulla Islomov, Norbek baxshi Abdullaev, Qalandar baxshi Normetov, Qodir baxshi Rahimov betakror ijrolari bilan baxshichilik san’ati rivojiga munosib hissa qo‘shdilar.

Yurtimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida baxshichilik san’ati rivojlangan bo‘lib, hozirgi kunda Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Chiroqchi, Dehqonobod, Sherobod, Boysun, Janubiy Tojikiston, Xorazm hamda Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud. Ular bir-biridan ijro usullari va repertuarlari bilan farqlanadilar. Jumladan, Bulung‘ur dostonchilik maktabi azaldan qahramonlik dostonlarini ijro etib kelgani bilan mashhur. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li va Po‘lkan shoirlar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan Qo‘rg‘on dostonchilik maktabida, asosan, lirik ishqiy qissalar kuylanadi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand baxshichilik maktabi vakillari do‘mbira jo‘rligida bo‘g‘iq, ya’ni yopiq ovozda terma-qo‘shiq ijro etib, ochiq ovozda doston jarayoniga ta’rif beradilar. Qashqadaryo baxshichilik san’ati yetuk doston ijrochisi bo‘lmish, Qodir baxshi Rahimov nomi bilan bog‘liq. Uning xotirasi yetmishdan ortik dostonlar saqlangan. Hozirgi kunda Qodir baxshi an’analarini uning o‘g‘illari, Abduqahhor, Abdumo‘min va Baxromlar davom etmoqdalar. Surxondaryo baxshichiligi Sherobod-Boysun maktabi bilan bog‘liq va uning asoschisi Sherna baxshi bo‘lgan, uning an’analarini shogird (Qora baxshi, Chori baxshi, Shoberdi Boltaev, Abdunazar Poyonov, Boborayim Mamatmurodov va b.)lari hozirgi kunda davom etmoqda.

Xorazm dostonchilik maktabi vakillarining ijrosida asosan musiqa yetakchilik qiladi. Xorazm baxshichilik maktabi vakillari cholg‘u ansambli (tarkibida dutor, bulaman, g‘ijjak (o‘tmishda); hozir – tor, qo‘shnay yoki bulaman, doira) jo‘rligida ichki ovozda qo‘shiq-ashula ijro etib dostonlarga ta’rif beradilar. Xorazm dostonchiligi repertuar tarkibi jihatidan ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Epik asarlarni talqin etishda jamoaviy ijrochilik yetakchilik qiladi. “Shirvoniy” (Xiva) va “Ironiy” (Mang‘it) nomli ikkita yo‘nalishga bo‘linadigan ushbu maktab qadimgi ildizlarga ega, o‘ziga xos repertuari, ansambllar tarkibi (Shirvoniy – tor, qo‘shnay, doira; Eroniy – dutor va uch torli g‘ijjak),uslub va lahja, yorqin va jonlantiruvchi qo‘shiq, ashula va ohang (15 tadan to 36 gacha)larga ega. Shirvoniy baxshichilik

maktabining yetakchi namoyandasi Bola baxshi (Kurbonnazar) Abdullaev va uning bolalari (Norbek, Muxammad, Yetmishboy); Eroniy baxshichilik maktabi namoyandasi Xudoybergan Utegenov. Xorazmda ayollar ijrosida ham dostonlar va doston terma-qo‘shiqlari aytilgan, ularni xalfa-dostonchi deb atashgan, jumladan, “Tohir va Zuhra” dostoni xalfalar orasida ommalashib ketgan. Dostonlar qo‘l soz (rus diatonik garmoni) va doira jo‘rligida ijro etilgan.

Qoraqalpoq baxshichilik maktabi ikkita yo‘nalishdan iborat – baksi (ichki ovoz uslubi dutor va g‘ijjak jo‘rnavozlida) va jirov (bo‘g‘iq ovoz uslubida qo‘biz jo‘rligida). An’ana namoyandalari – baksilik bo‘yicha Qayratdin Utemurotov, O‘ralboy O‘tambetov, Tengelboy Kallыev, Ziyoda Sharipova, Gulbaxor Rametova, Gulnur Hamitova, Zamira Ibrohimova; jirovchilik bo‘yicha Jumaboy jirov, Bakbergen Sыgыmbetov, Jonibek Piyazov, Baxtiyor Yesemuratov va b.

Yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga sodiq ruhda tarbiyalashda ezgulikka chorlaydigan, vatanparvar, adolatli, mard, jasur bo‘lishga undovchi dostonlarining va umuman baxshichilik san’atining o‘rni beqiyos. XX asrning 70-chi yillaridan boshlab O‘zbekistonda muntazam ravishda baxshi-shoirlar ko‘rik tanlovlari. 1999 yildan baxshi-shoir va oqinlar Xalqaro tanlovlari, Qashqadaryoning Kitob shahrida yosh baxshilar ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilmoqda. Baxshichilik san’ati ta’lim tizimining o‘quv jarayoniga kiritilgan.

2018 yilda Prezident Shavkat Mirziyoev qarori bilan Nukus va Termiz shaharlarida Xalqaro baxshichilik festivallari yuqori saviyada o‘tkazildi va O‘zbekiston hayotida katta madaniy voqealardan biri bo‘ldi.

Baxshichilik san’atini jahon nomoddiy madaniy merosning Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilishi xalqaro hamjamiyat uchun muhim ahamiyatga ega voqea bo‘ldi. O‘z navbatida bu qaror baxshichilikni asrab-avaylash va rivojlantirishda bundan buyon O‘zbekiston bilan YuNESKO qo‘lni qo‘lga berib harakat qilishi kerak bo‘ladi.

Endilikda “Baxshichilik san’ati” tushunchasi YuNESKO orqali butun dunyoda keng targ‘ib qilinadi. Endi bu madaniyat yo‘qolib ketmaydi, aksincha, rivoj topib boradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, xalqaro tashkilotlar kelajak avlodlarga bu madaniy merosni yetkazish va baxshichilik san’atining rivojlanishiga ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatishi, ularni jahon madaniyati durdonalari qatorida targ‘ib qilishi zarur. Albatta, bu jarayon qadamba-qadam, bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi. Uni izchillik bilan amalga oshirishda Prezident Shavkat Mirziyoevning doimiy e’tibori va qo‘llab-quvvatlashi katta ahamiyat kasb etmoqda. YuNESKOning Baxshichilik san’ati bo‘yicha qaroriga davlat rahbarini o‘zi tabrik yo‘llashi – bu misli ko‘rilmagan misoldir.

Shu tariqa YuNESKOning bu ro‘yxatiga kirgan nomoddiy madaniy merosimiz ob’ektlari soni 10 taga yetdi. “Boysun tumani madaniy makoni”, “Shashmaqom” mumtoz musiqasi, “Katta ashula”, “Askiya san’ati”, “Navro‘z”, “Palov madaniyati va an’analari”, Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi: (adras – atlas), Xorazm raqsi – “Lazgi”, “Miniatyura san’ati” qatoridan “Baxshichilik san’ati” ham o‘rin oldi.

O‘zbekistonda Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga munosiblari hali ko‘p. Masalan, “O‘zbekiston kulolchilik maktabi” milliy elementlari, shuningdek, boshqa davlatlar bilan hamkorlikda “Hunarmandchilikning an’anaviy uslubi” va “Rubob chalish”, “Markaziy Osiyoda an’anaviy kashtachilik uslubi”, “Xo‘ja Nasriddin qissalarini aytish an’anasi” kabi ko‘p millatli nominatsiyalarni YuNESKOning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitasi muhokamasiga kiritiladi.

Xullas, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda boshqa milliy qadriyatlar singari baxshichilik san’ati ham o‘zining asriy an’analarini tikladi. Bu san’at turini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Xalqaro baxshichilik fistivallari tashkil etildi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. (Eng qadimdan islomgacha bo‘lgan davr). – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2005.

Ergashev A., Omonova G. Dostonlarda ayrim urf-odatlar va milliy qadriyatlar. – Qarshi: “Nasaf”, 2000

Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. – Toshkent: “Fan”, 2008

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4320-son Qarori